O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ 23/13-15/1
2023 yil « 31 » VIII

«TASDIQLAYMAN»
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
rektori O.A Ataniyazova
2023 yil « » _____

REABILITALOGIYA MODUL DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minoti
Ta’lim sohasi:	910000	- Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi:	60911200	- Oliy hamshiralik ishi

Nukus – 2023

Fan/modul kodi		O‘quv yili 2023-2024	Semestr 3	Kreditlar 2	
	Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** Qoraqalpoq		**Xaftadagi dars soatlari** 5/4	
1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**		**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Reabilitalogiya	4+26		30	60

1.	**1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni** Reabilitologiya moduli o'quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo'lib, 2 - kursda o'qitiladi va klinik fanlarni orasida muxim fan xisoblanadi. Reabilitologiya moduli bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning jarayonida talabalarga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni boshlaydi, talabalar tomonidan bemor bilan bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qila olish, bemorlarni turli xastaliklardan so'ng reabilitatsiya amaliyotini bajarish, ularni parvarish qilish va sog'lomlashtirishni o'rgatadi. Modulni o'qitish uchun biologiya, fizika, anatomiya, fiziologiya, kimyo fanlari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Reabilitologiya moduli keyinchalik ichki kasalliklar, bolalar kasalliklari, umumiy xirurgiya va bolalar xirurgiyasi, xamshiralik ishi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. **2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari** **2.1. Modulning maqsadi** - talabalarga turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishni, turli hastaliklardan so'ng bemorni sog'lomlashtirish, sog'lig'ini tiklash borasidagi bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish. **2.2. Modulning vazifalari:** – Reabilitologiya tamoyillarini talabalar ongiga singdirish; – klinikaning bemorlar davolanadigan bo'limlari, hamda poliklinika tuzilmalarida bemorlarni reabilitatsiya ishini tashkil qilish asoslari bilan tanishtirish; – kattalar, bolalar va o'smirlarni poliklinik davolash tizimida parvarish qilishni o'rgatish; – bemorlarni sog'lomlashtirish usul va uslublari bilan tanishtirish; – kasalxona va poliklinika sharoitida erta reabilitatsiya ishlarini olib borish haqida tushuncha berish; – kasalxona va poliklinika sharoitida reabilitatsiya olib borish ko'nikmalarini shakllantirish; – sog'lomlashtirish muolajalarini samaradorligini baholashga o'rgatish; – bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish; – sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga o'rgatish **2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:** **Talaba:** – reabilitologiya sohasiga tegishli O'zbekiston Respublikasidagi qonunlar va xuquqiy-normativ hujjatlarni; – sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari; - O'zbekistonda sanator davo, fizioterapiya, reabilitologiyani rivojlanishining zamonaviy xolati to'g'risida; – reabilitologiyaning asosiy tushunchalari haqida, reabilitolog faoliyatining mazmuni haqida; – birlamchi va ikkilamchi profilaktika, bolalar salomatligini tabiiy omillar yordamida mustahkamlash va saqlab qolish usullarni; – kasallik va patologiya, salomatlik to'g'risida; – harakat faolligi, BJSST ishlab chiqilgan tavsiyalar; – O'zbekistonda joylashgan shifo maskanlari turlari va davolovchi tabiiy omillari klassifikatsiyasini; – jismoniy madaniyatni uslub va nazariyalarining asosiy savollari bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi; – fizioterapevtik muolajalari, jismoniy mashqlarni va davolovchi uqalashning odam organizimiga ta'sir mexanizmlarini va javob reaktsiyalarini; – fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya va davolovchi uqalash muolajalarini tanlashda umumiy va maxsus ko'rsatma va mo'neliklarga rioya qilishni; – sanatoriy va kurortlarga bemorlarni rasmiylashtirish uchun kerakli tibbiy tekshiruv usullarini; – sog'lomlashtirish maqsadida fizioprofilaktik va davolovchi jismoniy tarbiya muolajalarini qo'llash; – jismoniy reabilitatsiyani turlari, shakllari va vositalari; – davolovchi jismoniy tarbiya va davolovchi uqalashning usullarini to'g'ri tavsiya qilish va qo'llanilish samaradorligini baholash;

– kasallikning turli bosqichlarida fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya, refleksoterapiya, davolovchi uqalash, fitoterapiya va boshqa usullarini o'z vaqtida qo'llash va ularni bir biriga mosligini, sog'lomlashtirish, profilaktika, sanitariya-gigiena tadbirlarini o'tkazishni;
– sog'lom hayot turmush tarzini tashviqot qilishni bilishi va ulardan foydalana olish;
– turli kasalliklar bilan xastallangan bolalarga individual reabilitatsiya dasturlarni tuzish (davolovchi jismoniy mashqlarni majmuasini tuzish va patogenetik fizioterapevtik muolajalarni, an'anaviy usullarni belgilash);
– bemorlarda davolovchi gimnastika muolajasida jismoniy yuklamani baxolash usuli yordamida mashg'ulotda qo'llanilayotgan jismoniy yuklamalarning adekvatligini va samaradorligini baholash malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

1-mavzu. Reabilitatsiya aspektlari. Reabilitatsiyaning turli davrlarida fizik omillarning qo'llanilish ahamiyati

2-mavzu. Davolovchi jismoniy tarbiyaning umumiy asoslari, vositalari, shakllari, harakat tartibotlari. Chiniqishning asosiy printsiplari. Uqalash.

3-mavzu. Bolalarga jismoniy yuklamalarni tanlashning o'ziga xosligi.

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yhati:

1-mavzu. Turli yoshdagi bemorlarni reabilitatsiya amaliyotini o'tkazishni tashkil etish. Reabilitatsiyaning turli davrlarida fizik omillarning qo'llanilish ahamiyati. Fizik omillar bilan davolash printsiplari va ta'sir mexanizmi.

2-mavzu. Davolovchi jismoniy tarbiyaning umumiy asoslari: vosita va shakllari. Harakat tartibotlari. Yurak-qon tomir kasalliklarida reabilitatsiya o'tkazish tamoyillari.

3-mavzu. Mushak fiziologiyasi. Egiluvchanligi. Jismoniy yuklamalarni tayanch-harakat apparatiga ta'siri. Tayanch-harakat apparati holatini baholash. Tayanch-harakat apparati kasalliklarida reabilitatsiya o'tkazish tamoyillari.

3-mavzu. Bolalar va o'smirlar harakat faolligi. Jismoniy yuklama korrektsiyasi usullari. Bolalarga jismoniy yuklamalarni tanlashning o'ziga xosligi.

4- mavzu. Nafas olish tizimi kasalliklarida reabilitatsiya usullari. Talabalarga nafas olish tizimi kasalliklarida sog'lomlashtirish usullari borasida tushuncha berish. Hastalangan bemorlarni reabilitatsiya usullarining samaradorligini baxolashga o'rgatish.

5- mavzu. Ovqat hazm qilish va peshob ishlab chiqaruv tizimi kasalliklarida reabilitatsiya usullari.

6- mavzu. Asab tizimi kasalliklarida reabilitatsiya usullari. Nogironlik tushunchasi. Nogironlikga olib keladigan omillar. Nogironlikni turlari.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

- Talabani nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar: Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

- zaruriy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish;
- sog'lom turmush tarzini tashviqot qilish;
- bemor va sog'lom aholiga maslaxat berish;
- aholining salomatlik guruhlariga mos ravishda individual yordam ko'rsatish;
- tibbiyot etikasi va deontologiyasini saqlash;
- bemorlarda klinik tekshirish o'tkazish, anamnez yig'ish, tizim va organlar bo'yicha ko'rish;
- maqsadga yo'naltirilgan tekshiruvlarni buyurish;
- harakat rejimini buyurish;
- zarur tibbiy muolajalarni o'tkazib, shoshilinch tibbiy yordamni ko'rsatish;
- aholini ijtimoiy himoyalanmagan guruxlarga va bemorlarga parvarishni tashkillashtirish;
- patronaj va dispanserizatsiya ishlarini o'tkazish;
- profilaktik, sog'lomlashtirish sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni infektsion va noinfektsion kasallarda qo'llash;
- tibbiy adabiyotlar bilan ishlash.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yhati:

UK 1[1]. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
UKK 1[2]. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun zamonaviy tashhislash, reabilitatsiya asoslarini qo'llashga tayyorlik;
UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;
UKK4. Kasbiy muammolarni hal qilishda reabilitatsion muolajalaridan tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;
UKK 5. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

[1]UK- umumiy kompetentsiya
[2]UKK – umumiy kasbiy kompetentsiya

Modul davomida o'quv klinik amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarning klinik o'quv amaliyoti bo'limlarda, oilaviy poliklinikalarining fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya, davolovchi uqalash, EKG xonalarida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetriya, spiroanalizator, tonometr, otoskop, oftal'moskop va sh.o'.), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.
2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish va mulyajlarda, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat

ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqich namoyish qilinadi va ishlab chiqiladi.

3. Xulosa – o'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning o'maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammmolarni aniqlash va hal qilish.

Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim).O'qituvchi nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashga tayyor bo'lishlari lozim.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1.Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yhati:

1. Miofastsial og'riq sindromlarini davolovchi jismoniy tarbiya bilan davolash.
2. Markaziy elektranalgeziya.
3. Fitoterapiya.
4. Sharq tibbiyot allomalari asarlari.
5. Tib qonunlari.
6. Xitoy an'anaviy tibbiyoti
7. Jismoniy reabilitatsiya qandli diabet asoratining profilaktikasi vositasi sifatida.
8. Hazm sistemasi kasalliklari bilan kasallanganlarni davolash va reabilitatsiyasida fizioterapiyaning erishgan natijalari.
9. Siydik chiqaruv sistemasi kasalliklari bilan kasallanganlarni davolash va reabilitatsiyasida fizioterapiyaning erishgan natijalari.
10. Jismoniy reabilitatsiya qandli diabet asoratining profilaktikasi vositasi sifatida.
11. Gidrokinezoterapiya.
12. Speleoterapiya (galoterapiya).
13. Bolalar tserebral paralichida davolovchi jismoniy tarbiyaning o'ziga xosligi.
14. Balneoterapiya. Gidroterapiya. Balneologik kurortlar.
15. Iqlimli kurortlar. Talassoterapiya
16. Speleoterapiya (galoterapiya).
17. Erta yoshdagi bolalarda fizioterapiyani o'tkazish tamoyillari
18. Erta yoshdagi bolalar raxitida, ovqatlanishining buzilishida va anomaliyalarda davolovchi jismoniy tarbiya.
19. Tarang muhitning mexanik tebranishiga asoslangan fizik omillar.Zarbali to'lqin terapiya.
20. Fizioterapiyani zamonaviy usullari (ko'shimcha bitta apparatda, zamonaviy asbob-uskunalar ko'llaniladigan usullar).
21. Bolalarda fizioprofilaktika. Gelioterapiya.

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- referat tayyorlaydi va himoya qiladi
- taqdimot tayyorlaydi va himoya qiladi
- organayzerlar tuzadi
- muammoga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechadi

- ma'ruzalar qiladi;
Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Reabilitologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:
- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;
- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan ishtirok etish;
- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayerlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

Reabilitologiya moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan.

Modul bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari va baholash mezonlari

Reabilitologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:
- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YaN).

Modulga ajratilgan 2 kreditni talaba JN davomida yig'adi

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetentsiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Reabilitologiya, sport tibbiyoti moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetentsiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda nazariy va amaliy bosqichlarda amalga oshiriladi. Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Baho Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" –a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida	5	a'lo

				foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'gri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni echishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
	81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'gri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va asbiy vazifalarni qo'yish hamda hal ilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi	4	yaxshi

				vaziyatlarda to'gri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
		71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'gri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'gri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini etarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy		

			mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida etarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'gri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;	3	Qoniqarli
55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'gri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi; modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal		

			etishda qo'llay olishi; pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi; o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda etarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
31-54	FX	"qoniqarsiz" –minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	(talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy atolarga yo'l qo'ysa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'grilay olmasa.	**2**	**qoniqarsiz**
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'grilay olmasa.		

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

JN ga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YaNga kiritiladi. YaNda talabaning bilim, amaliy ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YaN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng og'zaki o'tkaziladi. YaNda saralash balini (55ball) yig'a olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham). Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakul'tet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.Tsikl yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan

talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakul'tet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakul'tet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

5.1. Asosiy adabiyotlar

1. Усманходжаева А.А. Спортивная медицина и реабилитология – учебник, 2019 й., 1023б.
2. Usmanxodjaeva A. A. Sport tibbiyoti va reabilitologiya - darslik, 2019 y., 1023 b.
3. Usmanxodjaeva A. A., Adilov Sh. Q., Visogortseva O. N. Umumiy va xususiy fizioterapiya asoslari. Oquv qóllanma.- Toshkent. "Navro'z" nashriyoti. 2018 y
4. Agzamova Sh. A, Shamansurova E. A, Ganieva D. K. va boshqalar "Reabilitologiya" darsligi, Toshkent, 2020, 492 b.

5. 2. Qosımsha ádebiyatlar

1. David X. Braddom's Physical medicine and Rehabilitation . Elektron sabaqlıq. Edited by Citu Philadelphia. USA. 2016 y.
2. Сокрут В.Н., Яблучанский Н.И. Медицинская реабилитация: Учебник для студентов и врачей. - Славянск: «Ваш имидж», 2015 г.
3. Пономаренко Г.Н. Медицинская реабилитация. Учебник. Россия. ГЭОТАР-МЕД., 2014г.
4. Пономаренко Г.Н. Физическая и реабилитационная медицина. Национальное руководство. Россия. ГЭОТАР-Медиа 2017 г.
5. Shamansurova E. A., Altibaeva S. Sh., Agzamova Sh. A. "Shifobaxsh jismoniy tarbiya" oquv qóllanma, Toshkent, G'afur Ǵulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014 y.
6. Berkowitr's Pediatrics a primary care approach 5 th Edi. American Acad.Of Ped. 2014-1068p.
7. Агзамова Ш.А. и др. Применение методов реабилитации в лечении больных с заболеваниями сердечно-сосудистой системы. Уч.-метод. пособие. ТашПМИ. 2010 – 101 с.
8. Кошымбетова Г.К и др. Методы реабилитации при акушерско-гинекологических заболеваниях. Уч.-метод. пособие. ТашПМИ. 2010.
9. Деворова М.Б. и др. Применение методов реабилитации в педиатрии. Уч.-метод. пособие. ТашПМИ. 2011.

5. 3. Internet saytları

http://www.booksmed.com/narodnaya-medicina/
http://www.cc.nih.gov/researchers/training/principles.shtml
http://www.ascpt.org/
www.doktor.ru,
www.medinfo.home.ml.org
www.pubmed.com , www.sportmed,ru
http://www.guideline.gov/index.asp
http://www.klinrek.ru/cgibin/mbook,
http://www.rusmedserv.com
http://www.eurasiahealth.org,

http://www.medscape.com,
http://www.pubmedcentral.nih.gov
www.alhealth.com, www.docguide.com, www.healthweb.com,www.acsm.org,
www.apta.org,www.sportsmed.org ,www.jphysiol.org
www.physsportmed.com, www.sportsmedicine.com

"REABILITOLOGIYA" MODULI SILLABUSI

Modulning to'liq nomi	**REABILITALOGIYA**		
Modul kodi:	Kredit hajmi: 2 kredit Shundan: JN – 2 kredit: YN – 0 kredit (majburiy)	Modul o'tilish davri: 3-semestr	ECTS value 10
Ta'lim yo'nalishi	60911200– «Oliy hamshiralik ishi»	2- bosqich bakalavrlari	
Modulning davomiyligi	60 soat		
O'quv soatlari hajmi:	Jami soat:	60	
	Shuningdek		
	Ma'ruza	4	
	amaliy mashg'ulot	26	
	mustaqil ta'lim	30	
O'quv modulining statusi	Klinik modullar bloki		
OTM nomi, manzili	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti		
Kafedra nomi	Xalq tabobati va Ichki kasalliklar propedevtikasi		
Mazkur kursning o'qituvchilari haqida málumot	Lektorlar F.I.SH. Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.SH.	E-mail: E-mail:	
Mashg'ulot vaqti va joyi			
Modulning mazmuni	Reabilitologiya moduli talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini egallashda chiniqtirish, sog'lomlashtirish aspektlari, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash masalalari, turli kasalliklar bilan og'rigan bemor bolalarga o'z vaqtida reabilitatsiya dasturlarini o'tkazish va nogironlikni oldini olishda bilimlarni chuqurlashtiradi va maxsus amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi.		
Prerekvizitlar	Anatomiya, fiziologiya, biologiya, fizika, kimyo fanlari nazariy qismi hisoblanadi		
Postrekvizitlar	Reabilitologiya moduli keyinchalik ichki kasalliklar, bolalar kasalliklari, umumiy xirurgiya va bolalar xirurgiyasi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.		
Modulning maqsadi	Talabalarga turli yoshdagi bemorlarni sog'lomlashtirish, reabilitatsiya muolajalarini tashkillashtirish va olib borishga, kasbiy etika va deontologiya tamoyillarini, bemor xamda kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiena qoidalarini o'rgatish.		
Modulning	- bemorlarda turli xastaliklardan so'ng sog'lomlashtirish ishlarini olib		

vazifalari	borish asoslariga o'rgatish; – bemorlar va ularni yaqinlari bilan muloqat qilishga o'rgatish; – kattalar, bolalar va o'spirinlarni statsionarva poliklinik sharoitda davolashda reabilitatsion muolajalarni o'tkazishga o'rgatish; – hayot uchun havfli xolatlarda bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish; – bemorlarni sog'lomlashtirish va ish qobiliyatini tiklash borasidagi zamonaviy usullar to'g'risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish
Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar	**Talaba tasavvurga ega bo'lishi kerak:** 1. Reabilitatsiya usul va uslublari terminologiyasi; 2. Reabilitatsiyani tashkil qilish va olib borish; 3. Sog'lomlashtirish muolajalarini samaradorligini aniqlash; 4. Sog'lom turmush tamoyillari. **Talaba bilishi va ulardan foydalana olishi kerak:** 1.Davolash va profilaktika muassasalari va tibbiy xujjatlarning turlarini; 2. Reabilitatsiya ishlarini tashkillashtirishni; 3. Bemorni axvoli va kasallik kechuvidan kelib chiqqan xolda reabilitatsiya muolajalarini o'tkazishni; 4. Sanatoriy va kurortlarga bemorlarni rasmiylashtirish tartibini; 5. Sog'lomlashtirish maqsadida fizioterapiya, davolovchi jismoniy tarbiya va davolovchi uqalash muolajalarini qo'llash tartibotlarini. **Talaba ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:** 1. Bemor va uning yaqinlari bilan sog'lomlashtirish va reabilitatsiya borasida suxbat o'tkazishni; 2. Hayot uchun xafvli holatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni; 3. Reabilitatsiya muolajalari davrida bemorni axvolini baholay (termometriya, antropometriya, nafas olish soni, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o'lchash) olishni.
Ta'lim berish usullari	ma'ruza amaliy mashg'ulotlar
Ta'minot	Videomateriallar, prezentatsiyalar, kompyuter dasturlari, darsliklar, tarqatma materiallar, testlar, vaziyatli masalalar, o'quv qo'llanmalar.

O'qitish natijalari:
Modulni yakunlaganda talaba biladi:
- sog'lom turmush tarzini tashviqot qilish;
- bemor va sog'lom aholiga maslaxat berish;
- aholining alohida guruhlariga individual yordam ko'rsatish;
- tibbiyot etikasi va deontologiyasini saqlash;
- zarur tibbiy muolajalarni o'tkazib, shoshilinch tibbiy yordamni ko'rsatish;
- kerakli tibbiy hujjatlarni to'ldira bilish;
- aholini ijtimoiy himoyalanmagan guruxlarga va bemorlarga parvarishni tashkillashtirish;
- dispanserizatsiya ishlarini o'tkazish;
- profilaktik, sog'lomlashtirish sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni infektsion va noinfektsion kasallarda qo'llash;
- tibbiy adabiyotlar bilan ishlash;

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:
- mustaqil tibbiy xulosa berish;

- zaruriy hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish;
- bemorlarda klinik tekshirish o'tkazish, anamnez yig'ish, tizim va organlar bo'yicha ko'rish;
-maqsadga yo'naltirilgan tekshiruvlarni buyurish;
- harakat rejimini buyurish;
- bemorga reabilitatsion muolajalarni o'tkazishni.

Modul dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Institut kengashi bayonnomasi №_____ _____

Modul dasturi bo'yicha ma'sullar:

Abdrashitova G.S	«Xalq tabobati va ichki kasalliklari propedevtikasi» kafedrasi mudiri
Bekimbetova M.O	«Xalq tabobati va ichki kasalliklari propedevtikasi» kafedrasi st.assistenti

Taqrizchilar:

Primbetov K	QTI «Xalq tabobati va ichki kasalliklari propedevtikas» kafedrasi assistenti, t.f.n.
Jalekeeva F.	Qoraqalpog'iston Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassisi t.f.n., dotsent